



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko'chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94, (76) 221-74-81)

2022 - yil «6» - dekabr

VI-62-276-8-0-K/22

Surxondaryo viloyati hokimligi

Surxondaryo viloyati hududida mintaqaviy yo'llarni rivojlantirish uchun yonilg'i birligidan undiriladigan maxsus yig'imni belgilash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Moliya bosh boshqarmalari huzuridagi avtomobil yo'llarini rivojlantirish maqsadli jamg'armalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 123-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 3-maydagi KQ-224-IV-qarorlariga asosan, viloyat hokimligi huzurida tuzilgan mintaqaviy yo'llarni rivojlantirish uchun yonilg'i birligidan undiriladigan maxsus yig'im miqdorini shakllantirish bo'yicha Ishchi guruhning 2022-yil 8-oktabrdagi 02-02/280-sonli yig'ilish bayonini hamda deputatlarning bildirgan fikr-mulohazalar va takliflarini inobatga olgan holda, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 3-maydagi "Mintaqaviy yo'llarni rivojlantirish uchun yonilg'i birligidan undiriladigan maxsus yig'imni belgilash, uni to'lash va hisobini yuritish tartibi to'g'risida"gi KQ-224-IV-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi yo'l xo'jaligi tizimini chuqur isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5890-sonli Farmoniga hamda viloyat hokimligi Ishchi guruhi tomonidan mintaqaviy yo'llarni rivojlantirish uchun yonilg'i birligidan undiriladigan maxsus yig'im miqdorini belgilash bo'yicha takliflarni inobatga olib, viloyatda avtomobillarga yonilg'i hamda gaz quyish stansiyalari tomonidan

avtomobil benzini, dizel yonilg'isi va suyultirilgan gazning 1 litr uchun hamda siqilgan gazning 1 metr kubi uchun maxsus yig'im miqdori ilovada keltirilgan hududlar kesimida belgilansin.

3. Qarorga asosan hududlar kesimida belgilangan maxsus yig'im miqdori 2022-yil 10-dekabrdan kuchga kiritilsin hamda ushbu miqdorga keyingi davr uchun maxsus yig'im miqdorini belgilash va (yoki) bekor qilish to'g'risidagi qaror qabul qilingunga qadar amal qilinsin.

4. Maxsus yig'imni yig'ish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 3-maydagi KQ-224-IV-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablari asosida amalga oshirilsin.

5. Surxondaryo viloyati davlat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov):

maxsus yig'imning to'g'ri hisoblab chiqarilishi va Surxondaryo viloyati hokimligi Moliya bosh boshqarmasi huzuridagi "Avtomobil yo'llarini rivojlantirish hududiy maqsadli jamg'armasi"ga belgilangan muddatlarda to'lanishi ustidan nazorat olib borsin;

maxsus yig'imning hisoboti O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va davlat Soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shakl asosida soliq idoralari tomonidan belgilangan tartibda maxsus yig'im to'lovchilariga yetkazilishi hamda hisobotni taqdim etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq amalga oshirsin.

6. Surxondaryo viloyati davlat Moliyaviy nazorati boshqarmasi (B.Xusanov) Surxondaryo viloyati hokimligi Moliya bosh boshqarmasi huzuridagi "Avtomobil yo'llarini rivojlantirish hududiy maqsadli jamg'armasi"ga mablag'larning maqsadli va samarali foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshirsin.

7. Viloyat hokimligi huzurida tuzilgan mintaqaviy yo'llarni rivojlantirish uchun yonilg'i birligidan undiriladigan maxsus yig'im miqdorini shakllantirish bo'yicha Ishchi guruh (A.Xidirov) maxsus yig'im miqdorini keyingi davrlar uchun belgilash to'g'risidagi taklifni 2023-yil 1-martga qadar viloyat hokimligiga kelishish uchun kiritsin.

8. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (lavozimiga ko'ra), viloyat hokimining o'rinbosari A.Xidirov mintaqaviy yo'llarni rivojlantirish uchun yonilg'i birligidan undiriladigan maxsus yig'im miqdorini O'zbekiston

Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda 2023-yil 15-mayga qadar xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashiga ko‘rib chiqish uchun kiritсин.

9. Viloyat teleradiokompaniyasi (V.Mingboyev), viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Z.To‘rayev), “Surxon tongi” va “Zarya Surxana” gazetalari birlashgan tahririyati (S.Norqobilov)ga qaror doirasida amalga oshirilayotgan ishlarni ijtimoiy tarmoqlarda va ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

10. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan belgilangan muddatlarda xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashiga yozma hisobot kiritib borilsin.

11. Mazkur sessiya qarori ijrosini nazorat qilishni xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) zimmasiga yuklatilsin.

12. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi



Bobolov T.A.

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat
Kengashining
2022 yil 6 dekabrda
VI-62-276-8-0-K/22-son qaroriga
1-ilova

Ilova

**Surxondaryo viloyatida avtomobillarga yonilg'i hamda gaz quyish stansiyalari tomonidan
avtomobil benzini, dizel yonilg'isi va suyultirilgan gazning 1 litri uchun hamda siqilgan
gazning 1 metr kubi uchun belgilangan maxsus yig'im**

MIQDORI

(so'mda)

T/r	Hudud nomi	Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi hududiy mahsulotga nisbatan hisoblanganda	Aholi turli qatlamlarining daromadlariga nisbatan hisoblanganda	Avtomototransport vositalarining soniga nisbatan hisoblanganda	Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga nisbatan hisoblanganda	Belgilangan maxsus yig'im miqdori $(3+4+5+6)/4$
1	2	3	4	5	6	7
1	Angor tumani	15	18	17	23	18
2	Boysun tumani	14	14	18	16	16
3	Bandixon tumani	11	14	12	12	12
4	Denov tumani	25	22	21	19	22
5	Jarqo'rg'on tumani	23	24	15	21	21
6	Muzrabot tumani	16	17	13	21	17
7	Oltinsoy tumani	18	12	16	13	15
8	Sariosiyo tumani	21	19	24	21	21
9	Termiz tumani	12	21	25	22	20
10	Uzun tumani	17	16	19	15	17
11	Sherobod tumani	20	11	14	18	16
12	Sho'rchi tumani	22	16	22	14	19
13	Qiziriq tumani	13	20	20	18	18
14	Qumqo'rg'on tumani	24	25	14	17	20
15	Termiz shahar	19	23	23	25	23